

YERLARNI TALON-TOROJ QILISH HOLATLARIDAN MUHOFAZA QILISHNING
NAZARIY-HUQUQIY
ASOSLARI.

Qo`shayev Farrux Ro`zmat o`g`li

O`zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, magistratura bosqichi,
“Tergov faoliyati” yo`nalishi tinglovchisi.

E-mail: farrukushayev@gmail.com Tel: 97-360-07-11.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11396654>

Annotatsiya. Yer va yer resurslari tabiatning ajralmas va cheklangan manbalari hisoblanib, bugungi kunda mamlakatimizda ularni nobud qilish, maqsadsiz foydalanish va o`zboshimchalik bilan egallab olinishi ortidan jinoiy oqibatlar kelib chiqishining qonuniy asoslari belgilangan.

Mazkur maqolada yerlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati, yer uchastkalarini himoya qilishning milliy-huquqiy mexanizmlari va qonuniy asoslari, yerlarni talon-taroj qilish holatlarining sodir-qilinishi shart-sharoitlari ilmiy asoslantirilgan holda tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: yer huquqi, yer qonunchiligi, yer uchastkalari, sug`oriladigan yerlar, o`zboshimchalik, yer uchastkalarini egallab olish, jinoyat.

THEORETICAL AND LEGAL BASICS OF PROTECTING LAND AGAINST SCALES
OF LOITING.

Abstract. The land and land resources are considered irreplaceable and limited resources of the nature, and today in our country there are legal grounds for criminal consequences for their destruction, misuse and arbitrary appropriation. In

This article scientifically analyzes the socially-legal significance of land, national legal mechanisms and legal framework for the protection of land plots, and the conditions for the occurrence of cases of land plunder.

Key words: land plots, irrigated lands, arbitrariness, unauthorized seizure of land plots, crime.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЗАЩИТЫ ЗЕМЕЛЬ ОТ
БАРАЖАЩИХ ВЕСОВ.

Аннотация. Земля и земельные ресурсы считаются незаменимыми и ограниченными ресурсами природы, и сегодня в нашей стране существуют правовые основы для уголовно наказуемых последствий за их уничтожение, нецелевое использование и произвольное присвоение.

В данной статье научно анализируются социально-правовое значение земли, национально-правовые механизмы и правовые основы охраны земельных участков, условия возникновения случаев земельного разграбления.

Ключевые слова: земельные участки, орошаемые земли, произвольный захват земельных участков, преступность.

Yer - jamiyat rivojlanishining qadimiy davrlaridan boshlab yer munosabatlarining moddiy asosi va mulkchilikning asosiy manbai vazifasini bajarib kelmoqda. Yerlarni samarali foydalanishga moslash ishlari juda qadim zamonlardan boshlangan bo`lib, u davrlarda bu ishlar

tasodifiy xarakterga ega bo'lgan va asosan yerlarni foydalanish maqsadlariga qarab chegaralash ishlari olib borilgan.

Masalan, qabilalar o'zlari foydalanadigan yerlarni dehqonchilik, chorvachilik va ov qilish maqsadlari uchun bo'lishgan. Keyinchalik yerga mulkchilik munosabatlari paydo bo'lgandan keyin, bu ishlar yerlarni aniq maqsadlar bo'yicha taqsimlashga, ularni mulkdorlar va yerdan foydalanuvchilar manfaatlarini bo'yicha tashkil etishga aylandi.¹

Xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra har bir davlatning hududi – davlat chegarasi doirasidagi yer kengliklaridan iboratdir. Yer kengliklariga esa ushbu hududlarning quruqlik qismi, suv akvatoriyasi, yer osti boyliklari va atmosfera havosi kiradi. Mazkur tabiiy obyektlar har bir davlatda yashovchi insonlar uchun moddiy baza hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir davlat, jumladan, O'zbekiston Respublikasining hududi uning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi va mustaqilligining real ifodasi deb qaraladi.²

Yer - turli fan sohalarida turlicha ma'noga ega. Masalan, astronomiya fanida “yer” - Quyosh sayyorasi atrofida aylanuvchi va uning tizimida uchinchi bo'lgan sayyora; geografiya fanida “yer” - mazkur sayyoraning quruqlik qismi; qishloq xo'jaligi sohasida “yer” - sayyoramiz quruqlik qismining eng yuqori tuproq qatlami; ekologiya fanida “yer” - yagona ekologik tizimdagi maydon, relief va tuproqlarni qamrab oluvchi atrof tabiiy muhitning alohida bir qismi yoki komponenti; yurisprudensiya fanida “yer” - tasarruf qilish, egallash va foydalanish predmeti hamda ijtimoiy munosabatlarning mustaqil obyekti sifatida qaraladigan sayyoramiz quruqlik qismining eng yuqori qatlami; texnika sohasida “yer” - ma'lum bir turdagi xalq xo'jaligi obyektlarini, inshootlarini qurish yoki joylashtirish uchun mo'ljallangan zamin hisoblanadi.³ Yer har doim insoniyat istiqomat qiladigan tabiiy muhit hisoblanishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarishning ajralmas manbasi ham bo'lib qoladi.⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Qishloq xo'jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifamizdir.

Keyingi yillarda klaster usulida paxta yetishtirishni kamida 52% yetkazish uchun 48 ta paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu bilan birga, g'alla va meva-sabzavot klasterlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish kerak. Bu soha biz uchun nisbatan yangi ekanini inobatga olib, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, jumladan, kredit tizimini soddalashtirish, xarajatlarni subsidiyalash, yer ajratish bilan bog'liq tartiblarni qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Qishloq xo'jaligi ekinlari va chorvachilik bo'yicha yangi tarmoqlarni rivojlantirishimiz zarur. Bugungi kunda fermer xo'jaliklarining yillik chorva ozuqasiga bo'lgan ehtiyojining faqat 35 foizi mahalliy imkoniyatlar hisobidan qoplanmoqda. Qishloq xo'jaligi maqsadlarida yer berish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak. Yerdan samarali foydalanib, mo'l hosil olayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga o'z faoliyatini kengaytirishi uchun qo'shimcha yer maydonlarini ajratish lozim. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad –

¹ Mirzaabdullaeva M.R, Muqumov A.M, Xafizova Z.X. Yer huquqi. Darslik -T.: “TIMI”, 2020. – b.8

² O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. yu.f.d., professor, A.X.Saidov, Toshkent TDYI, 2005 yil.

³ Nigmatov A.N. Yer huquqi. O'quv ko'llanma. - T.: “Toshkent islom universiteti”, 2001.-224 6. b - 9.

⁴ Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii. Kommentariy / Pod obsh. red. B.BI.Topornina, Yu.M. Baturina, R.G. Orexova. M.: «Yuridicheskaya literatura», 1994. -s. 93

iqtisodiy foyda ko`rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir”⁵.

Yerning o`z tabiiy xossalari ega bo`lishi uning inson jamiyati hayotining farovonligini ta`minlash uchun zarur bo`lgan obyektlarni joylashtirishda (sanoat, qishloq xo`jaligi va tarixiy-madaniy obyektlar, aholi punktlar va boshqalar) zaruriy va umumiy asoslar sifatida tan olinishiga sabab bo`ladi.

Shu jumladan, yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish bilan bog`liq huquqiy munosabatlar insoniyat sivilizatsiyasining evolyutsiyasida muhim rol o`ynagan.⁶

Respublikamizda mustaqillik yillarida yerga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo`yicha keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi. So`nggi yillarda yerdan foydalanish sohasida ko`plab yangiliklar joriy qilindi, xususan rivojlangan bozor talablariga mos ravishda yer uchastkalarini xususiylashtirish ishlari yo`lga qo`yilishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Unda yer uchastkalarini xususiylashtirish qonuniylik, ixtiyoriylik, haq to`lash, xususiylashtiriladigan yer uchastkalarining va ularda joylashgan ko`chmas mulk obyektlarining birligi, ochiqlik va shaffoflik kabi asosiy tamoyillar asosida olib borilishi belgilangan.

Bunday sharoitda respublikamiz hududida mavjud bo`lgan yer resurslaridan oqilona, samarali, ilm-fan tavsiyalari, tabiatning umumiy qonuniyatlari asosida foydalanish va uning muhofazasini to`g`ri ta`minlash, shak-shubhasiz, bugungi kunning birinchi darajali vazifalaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda yer huquqi sohasidagi bilimlarning roli juda katta. Chunki u yerdan oqilona va samarali foydalanish va muhofaza qilish bilan bog`liq bo`lgan munosabatlarni tartibga soluvchi vazifani o`taydi, undan oqilona foydalanish va turli xil g`ayri qonuniy harakatlardan himoya qilish choralarini belgilaydi. Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar yer resurslariga ehtiyotkorona munosabatda bo`lish, ularni asrash, qadrlash, tuproq unumdorligini doimo oshirib borish talablarini o`rnatadi va ushbu talablarga rioya qilish choralarini belgilaydi. Demak, yer huquqi butun jamiyat uchun ham, har bir alohida shaxs uchun ham yerdan oqilona foydalanishni ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.⁷

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O`zbekiston XXI asr bo`zag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asarida yer zaxiralarining cheklanganligi va sifat tarkibining pastligi bilan bog`liq xavf to`xtovsiz ortib borayotganligi, ayni vaqtda yer ulkan boylik bo`libgina qolmay, balki mamlakatimizning kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi, shuning uchun ham yerlarni muhofaza qilish, ulardan o`ta samaradorlik bilan va oqilona foydalanishni yo`lga qo`yish zamonamizning eng dolzarb masalasi ekanligi alohida ta`kidlab o`tilgan.⁸

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta`kidlaganidek, “Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo`lgani kabi O`zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo`lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho`llanish, suv yetishmasligi, qurg`oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta`minlash shular

⁵ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti...> 2018.

⁶ В.Е.Некрасов. “Земельный участок, находящийся в долевой собственности: понятие и совершение сделок с ним” Автореферат дис. ... канд. юрид. наук. Ростов-на-Дону, 2007. - с.3

⁷ Mirzaabdullaeva M.R, Muqumov A.M, Xafizova Z.X. Yer huquqi. Darslik -T.: “TIMI”, 2020. – b.9

⁸ Nigmatov A.N. Yer huquqi. O`quv ko`llanma. - T.: “Toshkent islom universiteti”, 2001.-224 6. b - 3.

jumlasidandir. Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak”⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta‘minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.” deb belgilangan.¹⁰

Asosiy qomusimizda yerdan foydalanish va unga egalik qilishning konstitutsiyaviy asoslari qat‘iy mustahkamlanishi, ushbu tabiat resursini asrab-avaylash va undan samarali foydalanishdagi qonunbuzilishi holatlariga qarshi murossasiz kurashish ortidan zarur javobgarlik masalalarini belgilab berilishini ustuvor vazifa qilib qo‘ydi.

O‘zbekiston yer huquqi o‘z tartibga solish predmetiga ega. Bunda huquq normalari tartibga solishi kerak bo‘lgan barcha ijtimoiy munosabatlarning markazida yer turadi. Yer tabiatning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, umummilliy boylik - davlat mulki deb tan olingan. U fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi, qishloq xo‘jaligida bosh ishlab chiqarish vositasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari joylashishi va rivojlanishining hududiy bazasi.¹¹

Ko‘pchilik huquqshunos olimlar, yuridik adabiyotlarda yer va yer resurslarini tartibga soluvchi qonun normalarini maqsad va vazifalariga ko‘ra 3 ta guruhga bo‘lishadi.

1. Umumiy ahamiyatdagi qonunlar;
2. Maxsus ahamiyatdagi qonunlar;
3. Muhofaza ahamiyatidagi qonunlar.

Yerga oid siyosatni belgilashda ishtirok etadigan umummilliy ahamiyatdagi qonunlarga quyidagilar misol bo‘la oladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996 yil 29 avgust);
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” (1992 yil 9 dekabr);
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida» (2004 yil 9 dekabr);
4. O‘zbekiston Respublikasining qonuni «O‘rmon to‘g‘risida» (2018 yil 16 aprel) va boshq .

Ushbu qonunlarning ahamiyati shundan iboratki, birinchidan, ular yerga oid siyosatning umumiy yo‘nalishlarini belgilashda xizmat qilsa, ikkinchidan, yerlardan foydalanish va ayniqsa ularni muhofaza qilishda yerning ekologikhuquqiy munosabatlar tizimida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan qoida-talablarni mustahkamlaydi.

Yer huquqidagi maxsus ahamiyatdagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga quyidagilar kiradi:

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>. 20.12.2022 y.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent. «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi. 2023-yil. – 108 b. 20-21 betlar.

¹¹ Yer huquqi. Usmonov M.B. Toshket davlat yuridik instituti. 2002 y. 246 b.

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi (1998 yil 30 aprel);
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida» (2004 yil 26 avgust);
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida» (1998 yil 30 aprel);
4. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida» (1998 yil 28 avgust) va boshqalar.

Ushbu qonunlarda yer resurslarini muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish va Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, obyekt va subyektlari, yer uchastkalarining huquqiy holati, ushbu sohada Yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari, erkinliklari, kafolatlari va davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, yerga doir qonunchilik talablarini buzganlik uchun Yuridik javobgarlik chora-tadbirlari kabi yer-huquqiy qoida talablari belgilangandir. SHuning uchun ham yuqorida ta‘kidlangan O‘zbekiston Respublikasining qonunlari yerga oid munosabatlarni tartibga solish uchun qabul qilingan bo‘lib, yer huquqining maxsus manbasi sifatida e‘tirof etiladi.

Muhofaza ahamiyatidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994 yil 22 sentyabr);
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994 yil 22 sentyabr);
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996 yil 29 avgust);
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2007 yil dekabr);
5. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (1995 21 dekabr).

Ushbu qonun hujjatlari ham yerga doir qoida talablarni belgilagan holda yer huquqidagi maxsus qoida-talablar bilan bog‘liq ravishda yer qonunchiligini buzganlik uchun intizomiy, ma‘muriy, jinoiy, fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash, yerdan foydalanganlik uchun soliq va turli to‘lovlarni to‘lash bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga soladi.¹²

So‘nggi yillarda respublikada yer uchastkalaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta‘minlash, ularni muhofaza qilish, yangi yerlarni o‘zlashtirish hamda qayta muomalaga kiritish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda yerdan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta‘minlash, yerni muhofaza qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, hududlarda yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, jumladan noqonuniy qurilmalar qurish, shuningdek, yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallash holatlarining uchrayotganligi yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ekin yerlari respublika umumiy yer maydonining (44,8 mln. gektar) atigi 9,7 foizini (4,3 mln. gektar) tashkil etishi, ekin yerlarining ham faqatgina 3,2 mln. gektari sug‘oriladigan erlar hisoblanib, yerdan foydalanishdagi mas‘uliyatsizlik, o‘zibo‘larchilik va noqonuniy holatlar oqibatida bunday yerlar ham yildan yilga kamayib borayotganligi bu sohada qonuniylikni ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan prokuratura organlaridan sohada nazoratni yanada kuchaytirish zaruratini yuzaga

¹² Mirzaabdullaeva M.R., Muqumov A.M., Xafizova Z.X., Yer huquqi. - Darslik - T.: “TIMI”, 2020 y. – b. 8.

keltirmoqda. Prokuratura organlari tomonidan soʻnggi ikki yil davomida 43 996 ta holatda 13 872 gektar yer maydonlari oʻzboshimchalik bilan egallangan hamda 59 049 ta holatda 4 764 gektar ekin yerlarida noqonuniy qurilmalar qurilganligi aniqlangan. Respublikada 22 470 gektar qishloq xoʻjaligi yerlarini talon - toroj qilish bilan bogʻliq 957 ta jinoyat ishlari qoʻzgʻatilgan.¹³

Biroq, hududlarda yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, jumladan noqonuniy qurilmalar qurish, shuningdek, yerlarni oʻzboshimchalik bilan egallash holatlari uchrayotganligi bu borada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali yagona nazorat tizimini joriy etish hamda vakolatli idoralar oʻrtasida hamkorlikni yanada kuchaytirishni, tergov organlari tomonidan sodir etilgan yer talon-torojliklari bilan bogʻliq jinoyatlarni tezkorlik bilan fosh qilish va samarali tergov qilish borasida bilimlarni mustahkamlash, kelgusida sodir qilinishi mumkin boʻlgan shu toifadagi huquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni va tizimli islohotlarni doimiy ravishda amalga oshirib borishni taqozo etadi.

¹³ M.T.Abduhakimov, “Yer toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish masalalari” mavzusida PhD unvoni uchun dissertatsiya ishining avtoreferati, 12.00.07 - Toshkent sh., 2023 yil.